XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-iyun VI-74-71-4-0-K/24 Qashqadaryo viloyati

Viloyatda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov narxlari (tariflar)ni ma’qullash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish Respublika markazi Qashqadaryo viloyati hududiy filialining 2024-yil 2-maydagi 01-01/125-son, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 01-20-10/05-38/1148-son, O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 22-fevraldagi 01/02-662-son xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish Respublika markazi Qashqadaryo viloyati hududiy filialining 2024-yil 2-maydagi 01-01/125-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 01-20-10/05-38/1148-sonli, O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 22-fevraldagi 01/02-662-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyatining *(Qarshi shahridan tashqari)* tuman (shahar)larida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish, joylashtirish xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha narxlar (tariflar) **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (B.Yazdanov) hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (D.Allayev)ga qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflar belgilanganligini ommaviy axborot vositalari orqali aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar e’tiboriga yetkazish vazifasi topshirilsin.

4. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2022-yil 30-martdagi VI-42-62-4-0-K/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu qaror “Qashqadaryo” gazetasida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasman qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Xalilov va viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi AZIMOV MUROTJON BERDIALIYEVICH

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 13-iyundagi
VI-74-71-4-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyatining (Qarshi shahridan tashqari) tuman (shahar)larida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish, joylashtirish xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha

NARXLARI (tariflari)

	Hudud nomi	**Yangi tarif darajalari (so‘mda)**			
		Aholiga 1 (bir) kishi uchun bir oyda		**Yuridik shaxs (budjet va ulgurji tashkilotlar, korxona va muassasalar)dan 1 m³ uchun**	
		QQS siz	12% QQS bilan	QQS siz	12% QQS bilan
Viloyatining (Qarshi shahardan tashqari) tuman (shahar)larida	Viloyatning (Qarshi shahridan tashqari) tuman (shahar)larida	**4 224**	**4 800**	**66 880**	**76 000**

Izoh: O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-dekabrdagi O‘RQ-891-sonli Qonuni 4-moddasi 16-bandiga muvofiq joriy yilning 1-aprelidan boshlab Soliq kodeksi 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan sanitariya jihatdan tozalash bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinishi bekor qilinganligi inobatga olindi.

Qo‘shimcha qiymat solig‘i stavkasida o‘zgarishlar bo‘lgan taqdirda mazkur narxlar mos ravishda o‘zgaradi.